

**O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA OZIQ-OVQAT NOMLARINING  
QO‘LLANISHI  
(SUT MAHSULOTLARI MISOLIDA)**

**Shadiyeva Dilfuza Shamirzayevna**

*“International school of finance, technology and science” instituti o‘qituvchisi,  
dotsent v.b., filologiya fanlari nomzodi*

**MAQOLA MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 11.12.2025*

*Revised: 12.12.2025*

*Accepted: 13.12.2025*

*Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollarida  
oziq-ovqat, xususan, sut mahsulotlari  
nomining qollanishi, ularning milliy odatlar  
bilan bog‘liqligi haqida fikrlar bildirilgan.*

**KALIT SO‘ZLAR:**

*xalq og‘zaki ijodi, maqollar,  
janr, tasniflash, hayotiy tajriba,  
oziq-ovqat, sut mahsulotlari,  
chorvachilik, fasllar, sut,  
qurtova, ayron, qatiq, qaymoq*

Xalq maqollari hajman ixcham janr sanalsa-da, tugal va hayotiy ma’noga ega bo‘lgan hikmatlardir. Maqollarning har birida tilimiz qudrati, aql-farosat va tafakkurning uyg‘unlashuvi mujassam. Shu sababdan badiiy asarlarda, kattalarning pand-nasihatlarida albatta maqollarga murojaat qilinadi.

Maqollar mavzu doirasi ancha keng bo‘lib, ularni turli jihatdan tasniflash mumkin. Shu bilan birga, maqollar til nuqtayi nazaridan ham o‘rganilishi lozim bo‘lgan manbadir. Chunki ularda qo‘llangan so‘zlar xalqning asrlar mobaynida shakllangan hayotiy tajribalari hamda turmush tarzini ifodalaydi.

Maqollarda hayvonlar, o‘simliklar, ro‘zg‘or buyumlari, tabiat hodisalari, osmon jismlarini anglatuvchi so‘zlar bilan bir qatorda oziq-ovqat turlari nomlari ham faol qo‘llanadi. Jumladan, oziq-ovqat turlarining nomi sifatida maqollarda osh, non, tuz, suv so‘zlari juda ko‘p ishlatiladi. Masalan,

1. Bir kun tuz ichgan joyga

Qirq kun salom ber.

\*\*\*

2. Osh totig‘i – tuz.

\*\*\*

3. Non mo‘lligi – el to‘qligi.

\*\*\*

4. Osh kattadan, suv kichikdan.

O‘zbek xalq maqollarida oziq-ovqat turlari orasida oqliq deb ataluvchi sut-qatiq mahsulotlari nomi ham tez-tez tilga olinadi. Bu, birinchidan, chorvachilik xalqimizning ko‘p asrlik shug‘ullanuvchi sohasi ekanligi; ikkinchidan, oqliq xalqimizda muqaddas sanalishi bilan bog‘liqdir. Quyida tarkibida sut-qatiq mahsulotlari nomi uchraydigan maqollar haqida fikr-mulohazalar bildirib o‘tildi.

Xalqimizda sut hamda undan tayyorlanuvchi mahsulotlar umumlashtirilgan holda “oqliq” deb yuritiladi. Oqliqni uvol qilish gunoh sanalgan. Uyda bitta bo‘lsa ham sigiri bo‘lgan oila och qolmagan. Bu jihat xalq maqollarida ham namoyon bo‘lgan:

5. Oqliq bo‘lsa, ochlik yo‘q.

Yoki:

6. Agar bo‘lsa oqlig‘ing, bilinmaydi yo‘qliging.

Shuningdek, sut va sut mahsulotlari inson salomatligi uchun juda foydali ekanligi ham alohida uqtirilgan:

7. Oqliq bor joyda og‘riq bo‘lmas.

Xalqimizda sigir yetti xazinaning biri hisoblangan. Qo‘y, sigir, echki, ot, tuya kabi uy hayvonlaridan olinadigan sut va undan tayyorlanadigan mahsulotlar kundalik dasturxonimizning doimiy ne‘matlari bo‘lgan. Shu nuqtayi nazardan qaralsa, maqollarda sut. qurtova, ayron, qatiq, qaymoq kabi otlar tez-tez uchraydi.

Sut so‘zi ishtirok etgan maqollardan ayrimlarida uning rangiga, ba‘zilarida ta‘miga ishora seziladi:

8. Ig‘vogarga oq sut ham qora.

\*\*\*

9. Ayron – achchiq, sut – chuchuk.

Albatta, maqollarda doim ham so‘zning o‘z ma‘nosi qo‘llanmaydi. Shuning uchun keltirilgan misollardan birinchisida sut so‘zining ko‘chma ma‘noda ekanligiga diqqat qilish lozim.

Ba‘zan maqollarda sut ko‘p bo‘lishi tabiiy omillarga, xususan, yil fasllarining qulay kelishi o‘t-o‘lan va yem-xashak mo‘l bo‘lishiga bog‘liqligi haqida ham to‘xtab o‘tilgan:

10. Yaxshi kelsa, hutni ko‘ring,

Xurma-xurma sutni ko‘ring.

Hut – shamsiy yil bo‘yicha 12- oyning arabcha nomi hisoblanib, 22- fevraldan 21- martgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Agar bu davr dehqonchilik uchun qulay kelsa, demak, ekinlar, o‘simliklar o‘sishi uchun yaxshi sharoit bo‘ladi. Bu esa chorva mollarning semirib, sutning ko‘payishiga sababdir.

Sut mahsulotlaridan hisoblangan ayron ham maqollarda ko‘p qo‘llanadi. Ayron so‘zining izohida uning “Qatiqning kuvda moyi ajratib olingandan keyin qolgan suyuq qismi, shuningdek, qatiq yoki suzmaga suv qo‘shib tayyorlangan ichimlik” ekanligi sharhlangan. Demak, ayronning suyuqligi, yog‘sizligi va qorin to‘ydirmasligi kabi jihatlari maqollarda qo‘llanishiga asos bo‘ladi, deb hisoblash mumkin:

11. Ayron osh bo‘lmas,  
Nodon – bosh. (To‘yimsizligi asos qilib olingan)

\*\*\*

12. Tomog‘ingga qiltanoq ketsa,  
Ayronni ham chaynab ichasan. (Suyuqligi asos qilib olingan)

\*\*\*

13. Qatiq to‘kilsa, yuqi qolar,  
Ayron to‘kilsa, nesi qolar. (Yog‘sizligi hamda suyuqigi asos qilib olingan)

“Bir necha vaqt turgan, saqlangan sut betida paydo bo‘ladigan yoki sutdan ajraib olingan quyuq yog‘li mahsulot” sifatida izohlangan qaymoq so‘zi ham maqollarda tez-tez ucrab turadi. Shuni alohida aytish joizki, ushbu so‘z ayron kabi salbiy ma‘noda emas, asosan, ijobiy ma‘noda qo‘llanib keladi:

14. Yaxshi go‘sh — yaxshi sho‘rva,  
Yaxshi sut — yaxshi qaymoq.

\*\*\*

15. Yaxshining so‘zi — qaymoq,  
Yomonning so‘zi — to‘qmoq.

\*\*\*

16. Ichmas edim kosaning qaymog‘ini,  
Zor bo‘ldim kubining ayroniga.

Keltirilgan misollarning oxirgisida qaymoq hamda ayron so‘zlari quyuqlik, yog‘lilik, to‘yimlilik jihatdan qarshilantirilganini ko‘rishimiz mumkin.

Qatiq so‘zi ham sut mahsulotlarining boshqa turlari kabi maqollarda o‘z o‘rniga ega bo‘lib, u ijobiy ma‘noda ham, salbiy ma‘noda ham qo‘llanaveradi. Bu so‘z izohida qatiq “sutdan tomizg‘i solib ivitib tayyorlangan parhez mahsulot” ekanligiga ahamiyat beriladi.

17. Uyutqisiz qatiq uyumas,  
Achitqisiz — qimiz.

\*\*\*

18. Och uyda qatiq ivimas.  
Ko‘ryapmizki, maqolda qatiqning tomizg‘i solib ivitilishiga ishora mavjud.

19. O‘zing yotiq bo‘lsang, ichganing qatiq bo‘lar.

Bu maqol uchun esa qatiqning parhez taomligi asos bo‘lgan.

Yana bir sut mahsuloti hisoblangan qurtdan tayyorlangan qurtova (“qur(u)t yoki suzmani qaynagan suvda ezib tayyorlangan, ayronidan quyuq parhez ovqat”) haqida ham oz bo‘lsa-da, maqollar mavjud:

20. Azizlarning ko‘ngli qurtova tilar.

Shuningdek, qimiz (biya suti) so‘zi ishtirokidagi maqollar ham talaygina. Qimizning shifobaxshligi, uning salomatlik uchun ahamiyatli ekanligi alohida ta’kidlab o‘tiladi:

21. Qimiz ichgan qarimas,

Qarisa ham, dard ko‘rmas.

\*\*\*

22. Qimiz ichganing – qirchillaganing,

Sut ichganing – so‘lqillaganing.

Ko‘ryapmizki, oziq-ovqatlarning alohida guruhini tashkil etuvchi sut hamda sut mahsulotlari nomi xalq og‘zaki ijodi namunalarida, xususan, maqollarda ko‘plab uchraydi. Maqollar uchun ularning rangi, ta’mi, shifobaxshligi, yog‘lilik darajasi, quyuq yoki suyuqligi kabi xususiyatlari asos qilib olinadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. D.Sh. Shadiyeva DAVLAT TILIDA ISH YURITISHDAGI AYRIM MUAMMOLAR XUSUSIDA // Ученый XXI века. 2023. №1 (92).

2. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. (2001). Маънолар махзани (Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 448.

3. Саримсоков Б. (2004). Баднийлик асослари ва мезонлари. Янги аср авлоди, 252.

4. M.Khudayarova, Linguistic analysis of food names in the Uzbek language. Abstract of the dissertation of the Ph.D. in Philology. -T.: 2008

5. Shadiyeva Dilfuza, THE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN TEACHING THE UZBEK LANGUAGE. (2023). American Journal of Research in Humanities and Social Sciences, 11, 58-60.